ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 28.04.2026 · Accepted: 04.06.2026 · Published: 30.06.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/vjvq6r27

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
MILLIY MADANIYAT JURNALI, 2 (2), 2026
www.jnculture.uz

Maqom cholg‘u ansambllarida ijrochilik uslublari va ularning o‘ziga xos jihatlari

(Performance Styles in Maqom Instrumental Ensembles and Their Specific Features)

Rozakhon Khaydarova

Department of Maqom Instrumental Performance,
The Institute of Uzbek national musical art named after Yunus Rajabiy,
100001, Mustaqillik, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: RozaxonX@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada maqom cholg‘u ansambllarida ijrochilik uslublari va ularning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Ansambl tarkibidagi cholg‘ularning funksional roli, ijrochilar o‘rtasidagi musiqiy uyg‘unlik hamda ijro jarayonidagi uslubiy yondashuvlar yoritiladi. Shuningdek, an’anaviy va zamonaviy metodlar o‘rtasidagi munosabat, pedagogik amaliyotda uchrayotgan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida ijrochilik uslublarini rivojlantirishda kompleks va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati asoslab beriladi.

Milliy musiqiy meros tarkibida an’anaviy ansambl ijrochiligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu ijrochilik turi nafaqat musiqiy ifoda shakli, balki xalqning ichki ruhiy dunyosi, estetik didi va badiiy tafakkurining yorqin namunasidir. Ansambl ijrosi orqali turli cholg‘u asboblarining o‘zaro uyg‘unligi, ijrochilar o‘rtasidagi musiqiy muloqot va badiiy yaxlitlik namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan qaraganda, an’anaviy ansambl ijrochiligi milliy madaniyatni chuqur anglash, tarixiy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda yosh avlodni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: maqom, cholg‘u ansambli, ijrochilik uslubi, musiqiy uyg‘unlik, an’ana, innovatsiya, pedagogika, ijro texnikasi.

Abstract

This article analyzes performance styles in maqom instrumental ensembles and their distinctive features. It examines the functional roles of instruments within the ensemble, the musical coordination among performers, and stylistic approaches in performance practice. Special attention is given to the relationship between traditional and modern teaching methods, existing pedagogical challenges, and possible solutions. The study highlights the importance of integrated and innovative approaches in the development of performance skills.

Traditional ensemble performance is of particular importance in the national musical heritage. This type of performance is not only a form of musical expression, but also a vivid example of the inner spiritual world, aesthetic taste and artistic thinking of the people. Through ensemble performance, the harmony of various musical instruments, musical dialogue between performers and artistic integrity are manifested. From this point of view, traditional ensemble performance serves as an important tool for a deep understanding of national culture, the preservation of historical values, and the spiritual upbringing of the younger generation.

Keywords: maqom, instrumental ensemble, performance style, musical coordination, tradition, innovation, pedagogy, performance technique.

Аннотация

В данной статье анализируются исполнительские стили в макамных инструментальных ансамблях и их специфические особенности. Рассматриваются функциональная роль инструментов в ансамбле, музыкальная согласованность исполнителей, а также стилистические подходы в процессе исполнения. Особое внимание уделяется соотношению традиционных и современных методов обучения, существующим педагогическим проблемам и путям их решения. В результате исследования обосновывается значимость комплексного и инновационного подхода в развитии исполнительских навыков.

Традиционное ансамблевое исполнение имеет особое значение в национальном музыкальном наследии. Этот вид исполнения является не только формой музыкального самовыражения, но и ярким примером внутреннего духовного мира, эстетического вкуса и художественного мышления народа. Через ансамблевое исполнение проявляется гармония различных музыкальных инструментов, музыкальный диалог между исполнителями и художественная целостность. С этой точки зрения, традиционное ансамблевое исполнение служит важным инструментом для глубокого понимания национальной культуры, сохранения исторических ценностей и духовного воспитания молодого поколения.

Ключевые слова: макам, инструментальный ансамбль, исполнительский стиль, музыкальная согласованность, традиция, инновация, педагогика, техника исполнения.

O‘zbekiston o‘zining boy va ko‘p qatlamli madaniy merosi, xususan, asrlar davomida shakllanib, takomillashib borgan musiqa san’ati bilan ajralib turadi. Milliy musiqa an’analari xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va estetik qarashlari bilan

chambarchas bog‘liq holda rivojlangan bo‘lib, ularning asosiy qismi og‘zaki ijod va ustoz-shogird an’analari orqali avloddan avlodga uzatilgan. Aynan shu uzluksiz vorisiylik tufayli o‘zbek musiqasi bugungi kunga qadar o‘zining asl qiyofasini saqlab qolgan va zamonaviy madaniy hayotda ham muhim o‘rin egallab kelmoqda.

Milliy musiqiy meros tarkibida an’anaviy ansambl ijrochiligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu ijrochilik turi nafaqat musiqiy ifoda shakli, balki xalqning ichki ruhiy dunyosi, estetik didi va badiiy tafakkurining yorqin namunasidir. Ansambl ijrosi orqali turli cholg‘u asboblarining o‘zaro uyg‘unligi, ijrochilar o‘rtasidagi musiqiy muloqot va badiiy yaxlitlik namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan qaraganda, an’anaviy ansambl ijrochiligi milliy madaniyatni chuqur anglash, tarixiy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda yosh avlodni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

An’anaviy ansambl ijrochiligi uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan bo‘lib, u o‘zbek xalqining ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutgan. Ushbu ijrochilik shakli orqali insonning turli ruhiy kechinmalari – quvonch, iztirob, sog‘inch, umid va orzu-intilishlar musiqiy vositalar orqali ifodalangan. Shu bilan birga, xalqning turmush tarzi, urf-odatlari va ijtimoiy qarashlari ham ansambl ijrosida o‘z aksini topgan.

Tarixiy manbalarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, O‘zbekiston hududining turli mintaqalarida an’anaviy ansambl ijrochiligiga oid mustaqil maktab va yo‘nalishlar shakllanganini ko‘rish mumkin. O. Matyoqubov ritmni musiqani adabiyot hamda san’atning boshqa turlari bilan bog‘lovchi muhim mezon sifatida talqin qiladi. Olimning ta’kidlashicha, sinkretik hodisa sifatida qaraladigan kvantitativ ritm doirasida musiqa va she’riyat qonuniyatlari o‘zaro uyg‘unlashib, yagona badiiy tizimni hosil qiladi [1, 66-b.]. Xususan, Buxoro, Xorazm hamda Farg‘ona-Toshkent musiqa maktablari bu borada alohida o‘rin tutadi. Har bir hududiy maktab o‘zining ijrochilik an’analari, cholg‘u asboblari tarkibi, musiqiy asarlarning talqini va estetik yondashuvi bilan ajralib turadi. Masalan, ayrim hududlarda ijro sokin va falsafiy

ruhda olib borilsa, boshqa mintaqalarda u yanada jo‘shqin va lirizmga boy bo‘lishi mumkin.

Bugungi kunda an’anaviy ansambl ijrochiligini ilmiy jihatdan o‘rganish, uning uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish va zamonaviy ta’lim tizimiga tatbiq etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maqom cholg‘u ansambllarida shakllangan ijrochilik uslublarini chuqur tadqiq etish, ularning o‘ziga xos jihatlarini aniqlash hamda ularni amaliy ijrochilik jarayonida samarali qo‘llash dolzarb ilmiy masala sifatida e’tirof etiladi.

“Ansambl nima? Ansambl (fransuzcha ensemble - birgalikda) ya’ni birgalikda ijro etish ma’nosini bildiradi. Ansamblning turli tarkiblari mavjud. Jumladan: vokal yoki cholg‘u musiqa asarining bir necha ijrochi tomonidan ijro etilishi; bir guruh artistlarning bir butun badiiy jamoa holida chiqishi va h.k. Ansambl atamasi yaxshi tuzilgan va yuksak ijrosi bilan ajralib turadigan badiiy jamoalarga nisbatan ham qo‘llaniladi. Qolaversa, sodda qilib aytganda ansambl bir katta oiladir” [2, 3-b.].

Adabiyotlar tahlili

An’anaviy ijrochilik ansambli amaliyotida cholg‘ularining o‘zaro uyg‘unligi va musiqiy muvozanatga erishish eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki g‘ijjak, doyra, chang, rubob, tanbur, qo‘shnay, dutor, nay va ud kabi cholg‘ular ansambl tarkibida bir-birini to‘ldiruvchi vazifani bajarib, yagona badiiy g‘oya va musiqiy mazmunni ifodalashga xizmat qiladi. Har bir cholg‘u o‘ziga xos tembr, ifoda vositalari va ijrochilik imkoniyatlariga ega bo‘lsa-da, ular umumiy ijro jarayonida uyg‘unlashib, yaxlit musiqiy obrazni hosil qiladi.

Shu bois ansambl ijrochisi nafaqat o‘z cholg‘usini mukammal egallashi, balki boshqa cholg‘ularning ijrochilik xususiyatlari, imkoniyatlari va ifoda uslublari haqida ham yetarli bilimga ega bo‘lishi zarur. Bunday yondashuv ijrochining

musiqiy tafakkurini kengaytiradi, ansambl ichidagi o‘zaro tushunish va moslashuv darajasini oshiradi hamda ijro jarayonining umumiy sifatini yaxshilaydi.

Ansambl borasida Fitrat shunday deydi: “Bizda “shashmaqom” dan birtasi chalinmoqchi bo‘lganda majlisning tubandagi yo‘sinda borishi lozim ko‘rilgandir: ikki tanbur, bir dutor yohud ikki tanbur bilan bir qo‘biz (qo‘biz bo‘lmag‘anda uchinchi tanbur kamoncha bilan chalinadur) ikki yo uch hofiz o‘turadurlar, cholg‘ular ishga kirishadirlar” [3, 12-b.].

An’anaviy ijrochilik amaliyotida yakkanavozlik va jo‘rnavozlik (ansambl ijrosi) shakllarini to‘g‘ri o‘zlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon musiqaning ichki tuzilishi, ya’ni usul (ritm) va ohang (melodiya) uyg‘unligiga bevosita bog‘liqdir. Musiqa san’atining mohiyati ham aynan ushbu ikki unsur – ritmik asos va ohangdorlikning birligida namoyon bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, har bir ijrochi nafaqat kuy ijrochisi, balki zarb (ritm) tizimini chuqur tushunuvchi musiqachi ham bo‘lishi lozim. O‘zbek musiqa an’anasida doyra usullari ayniqsa muhim o‘rin tutadi, chunki ular ansambl ijrosining ritmik asosini belgilab beradi va umumiy musiqiy harakatni boshqaradi. Doyra ko‘pincha yetakchi ritmik vosita sifatida xizmat qilib, ijroning barqarorligi va uyg‘unligini ta’minlaydi.

Musiqashunoslik nuqtai nazaridan, ansambl ijrosida har bir ijrochining doyra usullarini bilishi majburiy shart hisoblanadi. Chunki ritmik asosni to‘liq anglamasdan turib, ijro etilayotgan asarning ravonligi, musiqiy yaxlitligi va badiiy mukammalligiga erishish mushkuldir. Aynan shu omil ansambl ijrosining uyg‘unligi va ifodaviy jozibasini ta’minlaydi.

Aslida, ansambl ijrochiligi tinglovchiga musiqiy asarning mazmuni, badiiy g‘oyasi va estetik ifodasini to‘liq va chuqur anglash imkonini beruvchi murakkab ijrochilik shaklidir. Bunday ijro jarayonida musiqiy material bir nechta cholg‘ular orqali uyg‘unlashgan holda yangraydi va natijada boy, ko‘p qatlamli badiiy tasavvur hosil bo‘ladi. Shu sababli ansambl tarkibida faoliyat yurituvchi sozandalar nafaqat

o‘z cholg‘ularini mukammal egallagan bo‘lishlari, balki umumiy musiqiy jarayonda faol va mas’uliyatli ishtirok etishlari ham talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ansambl ijrochiligida har bir ijrochi o‘z cholg‘usining imkoniyatlarini to‘liq namoyon etish bilan birga, umumiy talqinda shakllanayotgan musiqiy ovozning uyg‘unligi va badiiy yaxlitligiga hissa qo‘shadi. Bu jarayonda har bir cholg‘uning ovozi boshqalar bilan mutanosiblikda bo‘lib, yakuniy musiqiy ifodaning estetik jihatdan mukammal bo‘lishini ta’minlaydi.

Sozandalarda ansambl ijrochiligi ko‘nikmalarini shakllantirishda bir qator muhim omillarga alohida e’tibor qaratish zarur. Jumladan:

a) musiqiy asarning g‘oyaviy va badiiy mazmunini chuqur anglash va idrok etish;
b) ijrochilik uslublarini farqlay olish va ularni to‘g‘ri qo‘llash;
c) musiqiy asar shaklining tuzilishi va uning ichki mantiqini teran tushunish va tahlil qilish.

Musiqiy asarning g‘oyaviy mazmunini idrok etish ijrochilik jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan shu omil asarning xarakteri, sur’ati (tempi) va dinamik ifodasining to‘g‘ri shakllanishiga asos bo‘ladi. To‘g‘ri talqin qilingan asar esa tinglovchiga chuqur estetik ta’sir ko‘rsatadi va uning hissiy qabulini boyitadi.

Ijrochilik amaliyotida uslub masalasi ko‘p qirrali va murakkab mezon sifatida qaraladi. Har bir ijrochilik maktabi yoki an’ana o‘ziga xos uslubiy xususiyatlarga ega bo‘lib, ular ijro texnikasi, bezaklar tizimi, ritmik yondashuv va ifoda usullarida namoyon bo‘ladi. Uslubning asosiy mohiyati esa talqinda yaqqol ko‘rinadi, ya’ni bir xil musiqiy asar turli ijrochilar tomonidan turlicha talqin qilinishi mumkin.

Darvesh Ali Changiy risolasida quyidagilar qayd etiladi: “Ilk musiqa saboqlarini Darvesh Ali otasi Mirzo Ali Changiydan o‘rgangan. Keyinchalik o‘zidan

avvalroq ijod etgan mashhur musiqa arboblari Xujand Ja’far Qonuniy, Ali Do‘st Nayi, Hasan Kavkaviy, Hofiz Mahmud, Hofiz Miraq Ibn Majruhiylardan musiqachilikka xos va umumiy axloqiy, insoniylik fazilatlari saboqlarini o‘rganadi. Changiyning musiqa risolasida qayd etilgan o‘sha davr musiqa hayotida juda ko‘p hunarmand kishilar ham musiqa ijrochilik amaliyotida qizg‘in ishtirok etishgan. Jumladan; tikuvchi Boqiy Dirziy, Poyanda Tabib, Abdulkarim Qoziy, Munajjim Boqiy Shohidiy, Hofiz Qosim Bazzoz, Pirmuhammad Kulollar musiqa cholg‘ularida zo‘r mahorat bilan kuy ijro etishgan” [4, 2-b.].

Mumtoz musiqiy namunalarni turli uslublarda ijro etish ijrochilik san’atining tabiiy rivojlanish jarayonidir. Bu esa ijrochining ijodiy tafakkuri va mahoratini namoyon etadi. Shu bilan birga, mavjud ijrochilik uslublarini chuqur o‘zlashtirish va ularni o‘rinli tarzda qo‘llay olish sozandalik madaniyatining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Ayniqsa, ushbu uslublarni zamonaviy ijrochilik amaliyotida to‘g‘ri uyg‘unlashtirish ansambl ijrosining badiiy darajasini yanada oshiradi.

Ansambl ijrochiligi – bu bir necha sozandalarning hamkorlikdagi ijrosi asosida shakllanadigan murakkab musiqiy jarayon bo‘lib, unda har bir ijrochining individual bilim darajasi, ijrochilik mahorati hamda jamoa bilan uyg‘un ishlash ko‘nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi [5]. Bunday ijro shaklida har bir ishtirokchi nafaqat o‘z cholg‘usini mukammal egallashi, balki umumiy musiqiy jarayonning bir qismi sifatida mas’uliyatni his etishi zarur bo‘ladi.

Muhokama va natijalar

Maqom cholg‘u ansambllarida ijrochilik uslublarini o‘qitish jarayonida kuzatilayotgan dolzarb muammolardan biri – an’anaviy yondashuvlar bilan zamonaviy pedagogik va ijodiy izlanishlar o‘rtasidagi muvozanatning yetarli darajada ta’minlanmayotganidir. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, uzoq yillar davomida shakllangan ustozlik faoliyati jarayonida ansambl bilan ishlashda turli

metodik yondashuvlar sinovdan o‘tkaziladi va ularning ayrimlari ijobiy natijalar beradi.

Xususan, maqom cholg‘u ansambllari bilan ishlashda yangi pedagogik usullarni joriy etish, noodatiy ijrochilik elementlarini sinab ko‘rish hamda ijodiy tajribalar o‘tkazish talabalarning qiziqishini oshirish, ularning musiqiy tafakkurini kengaytirish va ijrochilik salohiyatini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bunday yondashuvlar orqali ansambl ijrosi yanada jonlanadi, talabalar esa faqat an’anaviy qoliplarga bog‘lanib qolmasdan, ijodiy fikrlashga yo‘naltiriladi.

Shu bilan birga, ayrim hollarda konservativ yondashuvlarga haddan tashqari tayanish, ya’ni faqat an’anaviy uslublarni qat’iy saqlashga intilish zamonaviy ta’lim talablariga moslashishda muayyan to‘siqlarni yuzaga keltirmoqda. Bunday qarashlar yangi metodik izlanishlarga ehtiyotkorlik bilan yondashishni taqozo etsa-da, ularning mutlaq ustun qo‘yilishi ijodiy rivojlanish jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Natijada talabalar ijrochilik jarayonida faqat tayyor qoliplarni takrorlash bilan cheklanib qolish ehtimoli yuzaga keladi.

Pedagogik amaliyot shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy va innovatsion yondashuvlar o‘rtasida sog‘lom muvozanatni ta’minlash eng maqbul yo‘l hisoblanadi. Yangicha metodlarni qo‘llash orqali talabalarda qiziqish uyg‘otish, ularni faol ijodiy izlanishga jalb etish mumkin bo‘lsa, an’anaviy uslublar esa maqom san’atining asl mohiyatini saqlashga xizmat qiladi. Shu bois mazkur ikki yo‘nalishni qarama-qarshi qo‘yish emas, balki ularni uyg‘unlashtirish zarur.

Mazkur muammo bosqichma-bosqich ilmiy va metodik asosda hal etilishi lozim bo‘lib, bu jarayonda pedagoglarning ochiq fikrliligi, tajriba almashinuvi va zamonaviy ta’lim tamoyillarini qabul qilish darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda, konservativ yondashuvlarning ustunligi talabalarning ijodiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va ansambl ijrochiligini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatlarini cheklab qo‘yishi mumkin.

Jamoaviy ijroning eng muhim jihatlaridan biri – musiqiy asarni chuqur tushunish, uning mazmunini to‘g‘ri anglash hamda boshqa ijrochilar bilan moslashish qobiliyatidir. Ushbu ko‘nikmalarni shakllantirishda bir qator metodik va ijrochilik mezonlari muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, ansambl ichidagi o‘zaro tinglash madaniyati va musiqiy moslashuv darajasi ijroning umumiy sifatini belgilab beradi.

Odatda, ansambl tarkibi turli tembr, rang va ifoda imkoniyatlariga ega bo‘lgan cholg‘u asboblaridan tashkil topadi. Har bir cholg‘uning ovoz kuchi, tembr xususiyati va ijro uslubi bir-biridan farq qiladi [6]. Shu bois ansambl ijrosida asosiy vazifalardan biri – turli ovozlarning bir-biriga mutanosib holda uyg‘unlashuviga erishishdir. Bu esa ijroning estetik yaxlitligi va badiiy ta’sirchanligini ta’minlaydi.

Bunda har bir sozanda nafaqat o‘z cholg‘usining texnik ijrosini, balki uning umumiy jarayondagi tovush balansi va sadolanishini ham nazorat qilib borishi lozim. Ovozlar o‘rtasidagi muvozanat saqlanmasa, ansambl ijrosining yaxlitligi buzilishi mumkin.

Ikkinchi muhim jihat bevosita musiqiy asarning talqini bilan bog‘liqdir. Ansambl ijrosida kuy mazmunini ochib beruvchi rang-barang ifodaviy vositalarning barcha cholg‘ularda uyg‘un va bir xil ruhda sadolanishi katta ahamiyatga ega. Bu jarayonda har bir ijrochining bezaklar, dinamika va ifoda usullarini bir xil talqinda bajarishi zarur bo‘ladi.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maqom cholg‘u ansambllarida ijrochilik uslublari murakkab, ko‘p qatlamli va o‘zaro bog‘liq jarayonlar tizimidan iboratdir. Ansambl ijrosi nafaqat alohida ijrochilarning mahoratiga, balki ularning o‘zaro uyg‘unligi, musiqiy muloqoti va umumiy badiiy talqinga erishish qobiliyatiga ham bevosita bog‘liqdir. Har bir cholg‘u asbobi ansambl tarkibida o‘ziga xos funksiyani bajarib, yagona musiqiy mazmunni ifodalashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ansambl ijrochiligida ovozlar mutanosibligi, tembr uyg‘unligi, intonatsion aniqlik hamda ritmik barqarorlik kabi omillar muhim ahamiyat kasb

etadi. Ayniqsa, doyra orqali ta’minlanadigan ritmik asos butun ijroning barqarorligini belgilab beruvchi yetakchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, har bir ijrochining nafaqat o‘z cholg‘usini mukammal egallashi, balki boshqa cholg‘ular imkoniyatlari va ularning ansambl ichidagi o‘rni haqida tasavvurga ega bo‘lishi zarur.

Maqom ansambllarida ijrochilik uslublari tarixiy, hududiy va individual omillar ta’sirida shakllanib, turli maktablar doirasida rivojlanib kelgan. Ushbu uslublarni chuqur o‘rganish, ularning o‘ziga xos jihatlarini anglash hamda amaliy ijrochilikda to‘g‘ri qo‘llash ansambl madaniyatini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, maqom cholg‘u ansambllarida yuqori darajadagi ijrochilikka erishish uchun individual mahorat, jamoaviy uyg‘unlik, uslubiy bilim va musiqiy tafakkur bir butun tizim sifatida shakllanishi lozim. Aynan shu omillar uyg‘unligi orqali ansambl ijrosi badiiy mukammallikka erishadi hamda milliy musiqiy merosimizning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Использованная литература

1. Matyoqubov O. Forobiy Sharq musiqasi asoslari haqida. – Toshkent: Fan, 1986. – 88 b.
2. Azizboyev S. Ansambl sinfi: oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2018.
3. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – Toshkent: Fan, 1993.
4. Rashidova D. Darvesh Ali Changiy // Sovet O‘zbekiston san’ati. – 1978. – № 10.
5. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. – Toshkent, 1986.
6. Yunusov R. Faxriddin Sodiqov. – Toshkent, 2005.

References

1. Matyoqubov, O. *Forobiy Sharq musiqasi asoslari haqida* [Al-Farabi on the Foundations of Eastern Music]. Tashkent: Fan, 1986. (in Uzbek)
2. Azizboyev, S. *Ansambl sinfi: oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma* [Ensemble Class: A Textbook for Higher Education Institutions]. Tashkent, 2018. (in Uzbek)
3. Fitrat, A. *O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi* [Uzbek Classical Music and Its History]. Tashkent: Fan, 1993. (in Uzbek)
4. Rashidova, Dilbar. “Darvesh Ali Changiy.” *Sovet O‘zbekiston san’ati* [Art of Soviet Uzbekistan], no. 10 (1978). (in Uzbek)
5. Akbarov, I. *Musiqa lug‘ati* [Dictionary of Music]. Tashkent, 1986. (in Uzbek)
6. Yunusov, R. *Faxriddin Sodiqov* [Fakhriddin Sodiqov]. Tashkent, 2005. (in Uzbek)